

***O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ALOQA, AXBOROTLASHTIRISH VA
TELEKOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARI
DAVLAT QO‘MITASI***

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

Himoyaga

«Multimedia texnologiyalari»

Kafedra mudiri

« ____ » _____ 2013yil.

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: “MEDIA MASTER SERVICE” FIRMASINING DINAMIK WEB SAXIFASINI
YARATISH**

Bitiruvchi _____ Turopov Sh.N.

Rahbar _____ Raximov B.A.

XFXdan

maslahatchi _____ Agzamova M.R.

Taqrizchi _____ Abduhalillov R.S.

Toshkent 2013

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ALOQA, AXBOROTLASHTIRISH VA
TELEKOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARI
DAVLAT QO‘MITASI**

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

Fakultet Axborot texnologiyalari kafedra «Multimedia Texnologiyalari»

Yo‘nalish **5521900** – Informatika va axborot texnologiyalari

TASDIQLAYMAN

«Multimedia texnologiyalari»

kafedrasi mudiri

« ____ » _____ 2013yil.

Bitiruv malakaviy ishni bajarishga

TOPSHIRIQ

Turopov Sherzod Nurmatovich

Mavzu: “Media Master Service” firmasining dinamik web saxifasini yaratish.

1. БМИ мавзуси “Media Master Service” firmasining dinamik web saxifasini yaratish,
2. Мавзу университетнинг 2013-йил 11-февралдаги 145-07 сонли буйруғи билан тасдиқланган.

3. Ишни тўлиқ бажариш учун берилган вақт _____
4. Ишга оид дастлабки маълумотлар: Илмий техник адабиётлар, дастурлашга оид адабиёт ҳамда дарсликлар, китоблар дўкони электрон савдоси веб сайтини яратиш технологиясига тегишли маълумотлар, интернет сайтлари, ҳамда тайёр дастурлар.
5. Ҳисоблаш – тушунтириш ёзувларининг мазмуни (ишлаб чиқариладиган масалалар рўйхати). Кириш. “Media master service” firmasining xizmat ko’rsatish tizimining hozirgi xolati. “Media master service” firmasining xizmat ko’rsatish web sayтини yaratish. “Media master service” firmasining xizmat ko’rsatish web sayтини amaliy tadbiri. Hayot faoliyati xavfsizligi. Хулоса. Илова.
6. График материаллар рўйхати 1. Мисрософт Повер Поинтда яратилган тақдимотлар.
7. Топшириқ берилган сана 11.02.2013-йил

Rahbar _____

Topshiriq oldi _____

8. BMI ning alohida bo‘limlari bo‘yicha maslahatchilar

Bo‘limning nomlanishi	Maslahatchi	Imzo, sana	
		Topshiriq berdi	Topshiriq oldi
Asosiy qism	Raximov B.T		
Hayot faoliyati xavfsizligi	Agzamova M.R.		

9. Ishni bajarish grafigi

No	Bo'limlarning nomlanishi	Bajarish muddati	Rahbar imzosi (maslahatchi)
1.	Кириш.	28.02.2013	
2.	“Media master service” firmasining xizmat ko'rsatish tizimining hozirgi xolati.	16.03.2013	
3.	“Media master service” firmasining xizmat ko'rsatish web saytini yaratish.	03.04.2013 21.04.2013	
4.	“Media master service” firmasining xizmat ko'rsatish web saytini amaliy tadbiqi.	20.05.2013	
5.	Hayot faoliyati xavfsizligi	30.05.2013	
6.	Хулоса.		

Bitiruvchi _____ «____» _____ 2013 yil.

Rahbar _____ «____» _____ 2013 yil.

MUNDARIJA

KIRISH.....	6
1.“MEDIA MASTER SERVICE” FIRMASINING XIZMAT KO‘RSATISH TIZIMINING XOZIRGI XOLATI.....	9
1.1 “Media Master Service” firmasining xizmat ko‘rsatish tizimining faoliyatini taxlili.....	9
1.2 “Media Master Service” firmasining xizmat ko‘rsatishda o‘ziga xos xususiyatlari.....	13
1.3 Axborot tizimi asosida “Media Master Service” firmasining tizimini takomillashtirish omillari.....	18
2. “MEDIA MASTER SERVICE” FIRMASINING XIZMAT KO‘RSATISH WEB SAYTINI YARATISH.....	23
2.1 “Media Master Service” firmasining xizmat ko‘rsatishni tashkil etish tamoyillari.....	23
2.2 “Media Master Service” firmasining xizmat ko‘rsatish web saytini yaratish algoritmi.....	25
2.3 “Media Master Service” firmasining xizmat ko‘rsatish web saytini yaratishning dasturiy ta’minoti.....	28
3. “MEDIA MASTER SERVICE” FIRMASINING XIZMAT KO‘RSATISH WEB SAYTINI AMALIY TADBIQI.....	33
3.1 “Media Master Service” firmasining tashkiliy tuzilishi.....	33
3.2 “Media Master Service” firmasining web saytini internet qidiruv tizimini yaratish.....	38
3.3 “Media Master Service” firmasining samaradorligini aniqlash.....	42
4. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI.....	47
4.1 Vibratsiya(titrash) ishlab chiqarishdagi zararli omil sifatida.....	47
4.2 Favqulodda vaziyatlar.....	52
XULOSA.....	58
ADABIYOTLAR.....	59
ILOVA.....	60

KIRISH

Hozirgi kunda jamiyatning izchil rivojlanishini axborot texnologiyalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.03.2012y. №PP-1730 "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va ushbu qarorni amaldagi tadbir'ini ta'minlash maqsadida 2012-2014 yillarga mo'ljallangan dasturni sifatli bajarilishiga zamin yaratilgan. Qarorga binoan, axborotlashtirishning milliy tizimini yaratish, iqtisodiyot va jamiyat hayotining barcha sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalarini, kompyuter texnikasi va telekommunikatsiya vositalarini ommaviy ravishda joriy etish, hamda ulardan foydalanish, fuqorolarning axborotga ortib borayotgan talab-ehtiyojlarini yanada to'laroq qondirish, jahon axborot jamiyatiga kirish, hamda jahon axborot resurslaridan bahramand bo'lishni kengaytirish uchun qulay shart – sharoitlar yaratilib kelinmoqda.[1]

Bugun kompyuter texnologiyalari dunyoda jadallik bilan rivojlanayotgan sohalardan biriga aylanib bormoqda. Kompyuterlar asta-sekin insonlar hayotiga kirib bormoqda. Ya'ni, faol ish yurituvchini internet global tarmog'isiz, intellektual ishchini esa ish joyida kompyutersiz tasavvur qilish qiyin. Kompyuter texnologiyalari inson hayot tarzida, kichik va katta korxonalarda, kompaniyalarda, o'quv dargohlarida, davlat muassasalarida behad katta ahamiyat kasb etmoqda.

Hozirgi vaqtda har bir tashkilot qaysi soxada ish olib bormasin, dunyo bozoriga chiqish uchun o'z faoliyatida internetdan foydalanish zarurligiga katta e'tibor qaratmokda.

Internetda axborotni joylashtirish uchun uning ekrandagi ko'rinishi qulay bo'lishiga, ya'ni Web-sahifasiga e'tibor berish zarur, chunki saxifadagi foydalanuvchi axborot har tomonlama bo'lishi mumkin va u Web-saytga joylashtiriladi. Yaratilgan sayt, qoida bo'yicha, informatsion yagona bus-butun

bo'lishi va joylashtirilgan axborotning ahamiyatiga qarab, ma'lum standartga ega bo'lishi kerak.

Yuqorida keltirilganlardan Web-saytni yaratish va uni loyihalash jarayonlarini o'rganib chiqish muammolarining kundalik zarurligi va dolzarbligi kelib chiqmoqda. Bu o'quv qo'llanma internetda ishlash bo'yicha ma'lum bilim va tajribaga ega bo'lgan talabalar uchun mo'ljallangan.

“Media Master Service”firmasining xizmat ko'rsatish Web-sahifasini yaratish misolida amaliy dasturlashtirishning nazariy asoslarini va tamoyillarini, ularning funksional va tuzulmaviy tashkil etilishini, maxsus dasturlash tillarini ishlatgan holda dinamik Web-sahiflari yaratish usullarini va uslubiyatlarini o'qitishdan iborat.

Shu sababdan, ushbu yo'nalish mutaxassislariga, ularning informatsion intellektual faolligi va zamonaviy texnologik madaniyatligiga yuqori talablar qo'yilmoqda. Tashkilot va muassasalarning samarali ishlashi mutaxassis va umuman, jamoaning muvaffaqiyati tadqiqodchi va foydalanuvchilarning zamonaviy kompyuter va Web–texnologiya uslublari va instrumental vositalarini qanday darajada o'zlashtirib olganliklariga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Shuning uchun “Media Master Service”firmasining xizmat ko'rsatish informatsion texnologiyaning yangi va samarali yo'nalishini o'rganishga yo'naltirilgan, shaxsan, Web–texnologiya va WWW butun dunyo cho'lg'aming ishlab turish asoslarini, Web–sahifa–saytlarini yaratish va rejalashtirishni va ularni internetga joylash va reklama qilishning ahamiyati beqiyos katta desak, mubolag'a qilmagan bo'lamiz.

Oliy majlis tomonidan “Axborotlash haqidagi”, “EHM uchun dastur va ma'lumotlar bazasining huquqiy himoyasi”, “Aloqalar haqida”gi qonunlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasini 2015 yilgacha “Axborotlash, qayta qurishning milliy dasturlari va telekommunikatsion tarmoqni rivojlantirishning normativ huquqiy” asoslari yaratildi.

Ushbu malakaviy bitiruv ishida ham ana shunday dolzarb masalalardan biri, hozirgi kunda juda kamchilikni tashkil qilayotgan “Media Master Service”


ustaxonalarning web saytlarini tarmoqqa joylashtirishdan iborat sanaladi. Negaki bu kabi saytlarning yaratilishi, turmush tarzining yanada rivoj topishiga va axbarot oqimlaridan oqilona foydalanishga zamin yaratadi. Bu kabi ustaxonalar yoki multimedia vositalari bilan shug'ullanadigan internet magazinlar, services xizmatlarini taklif qilayotgan boshqa turdagi tashkilotlar uchun bu juda qulay hisoblanadi. Yaqin orada bu turdagi saytlar va dasturiy mahsulotlar ko'payishi yurtimiz uchun ham, foydalanuvchilar uchun ham manfaatli bo'ladi deb o'ylaymiz va ushbu malakaviy bitiruv ishidan ko'zlangan maqsad ham shundan iboratligini takidlab o'tmoqchi edik.

1.“MEDIA MASTER SERVICE” FIRMASINING XIZMAT KO‘RSATISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI

1.1.“Media Master Service” firmasining xizmat ko‘rsatish tizimining faoliyatini tahlili

“Media Master Service” firmasining xizmat ko‘rsatishda kompyuterning asosiy qurilmalari quyidagilar: sistemali blok, monitor va klaviatura (sichqoncha bilan).

Sistemali blokda markaziy protsessor, operativ (tezkor) xotira, qattiq disk, kontrollerlar, disketalar va lazerli kompakt disklar bilan ishlash uchun qurilmalar va boshqalar joylashadi.



1-Monitor; 2-Ona platasi;
3-protsessor; 4-Videokarta; 5-Xotira;
6-Ozuqa bloki; 7-Diskovod; 8-Qattiq
disk; 9-Klaviyatura; 10-sichqoncha;

1.1-rasm. Kompyuterning asosiy qurilmalari.

Markaziy protsessor. Kompyuterning eng muxim qismini markaziy protsessor, (ya’ni protsessor va boshqaruv qurilmasi) tashkil etadi. Dastur yordamida berilgan ma’lumotlarni o‘zgartiradigan, xamma xisoblash jarayonlarini boshqaradigan xamda xisoblash ishlariga tegishli moslamalarning o‘zaro aloqasini o‘rnatadigan qurilma — protsessor deb ataladi. Arifmetik va mantiqiy amallarni

bajarish, xotiraga murojaat qilish, dasturdagi ko'rsatmalarning berilgan ketma-ketlikda bajarilishini boshqarish va boshqa amallar protsessor zimmasidadir. Bir so'z bilan aytganda, protsessor kompyuterning barcha ishini boshqaradi va barcha ko'rsatmalarini bajaradi.

Mikroprotsessor. IBM rusumli kompyuterlarda protsessor sifatida odatda Intel firmasi yoki o'nga muvofik boshqa firmalarning mikroprotsessorlari o'rnatiladi. Kompyuterlar mikroprotsessor turlari bilan farqlanadi. Mikroprotsessorlarning Intel 8088, 80286, 80386SX, 80386, 80486 kabi turlari ma'lum.

1993 yildan boshlab Intel firmasi Pentium mikroprotsessorlarini ishlab chiqarib, IBM kompyuterlariga o'rnatmoqda.

Operativ xotira. Operativ xotira o'zida kompyuterda ishlatilayotgan dasturlar va ma'lumotlarni saqlaydi. Ma'lumotlar doimiy xotiradan operativ xotiraga ko'chiriladi, olingan natijalar zarur xolda diskka qayta yoziladi. Kompyuter o'chirilishi bilan operativ xotiradagi ma'lumotlar o'chiriladi.

Diskli jamlagichlar. Ma'lumotlarni saqlash, xujjatlarni va dasturlarni bir joydan ikkinchi joyga olib o'tish, bir kompyuterdan ikkinchisiga o'tkazish kompyuter bilan ishlaganda foydalanadigan axborotni doimiy saqlash uchun disklardagi jamlagichlar ishlatiladi. Ular ikki turda bo'lib, egiluvchan disklar (disketalar) va qattiq disklardagi jamlagichlar (vinchesterlar) deb ataladi.

Egiluvchan disklar (disketalar)ga ma'lumotlarni yozish va ulardan ma'lumotlarni o'qish uchun disk yurituvchi (diskovod) qurilmasi ishlatiladi.

Xozirgi paytda kompyuterlarda, asosan, 3,5 dyuymli (89 mm), sig'imi 1,44 Mbayt bo'lgan disketalar ishlatilib kelinmoqda. Bu disketalar qattiq plastmassa g'ilofga o'ralgan bo'lib, bu ularning ishonchliligini va ishlash muddatini oshiradi. 3,5 dyuymli disketalarda yozishni takidlovchi yoki imkon beruvchi maxsus o'tkazgichi mavjud. Agar teshikcha bekilgan bo'lsa ma'lumotlar yozish mumkin, aks xolda esa, mumkin emas. Disketadan birinchi bor foydalanganda uni albatta maxsus ravishda formatlash, initsializatsiya qilish kerak. Buning uchun WINDOWSning maxsus dasturi kerak bo'ladi.

Qattiq disklardagi jamlagichlar (vinchesterlar) kompyuter bilan ishlaganda foydalaniladigan axborotni doimiy saqlashga mo'ljallangan. Masalan, operatsion tizim dasturlari, ko'p ishlatiladigan dasturlar paketlari, xujjatlar taxrirlagichlari, dasturlash tillari uchun translyatorlar va boshqalar.

Kompyuterda qattiq diskning mavjudligi u bilan ishlashda qulaylikni oshiradi. Foydalanuvchi uchun qattiq diskdagi jamlagichlar bir-biridan, ya'ni diskka qancha axborot sig'ishi bilan farq qiladi. Xozirgi paytda kompyuterlar asosan sig'imi 20 Gbayt va undan ko'p bulgan vinchesterlar bilan jixozlanmokda. Fayl serverlar nafakat katta sig'imli,, balki tezkor bo'lgan bir nechta vinchesterlar bilan jixozlanishi mumkin.

Diskning ish tezligi ikki ko'rsatkich bilan aniqlanadi:

1. Diskning sekundiga aylanishlar soni.
2. Diskdan ma'lumotlarni o'qish va o'nga ma'lumotlar yozish tezligi.

Shuni aloxida ta'kidlash lozimki, ma'lumotlarga kirish vaqti va o'qish-yozish tezligi faqat diskovodning o'zigagina bog'lik emas, balki disk bilan axborot almashish kanali parametrlariga, disk kontrolerining turi va kompyuter mikroprotsessorining tezligiga xam bog'lik.

Kontrolerlar (maxsus elektron sxemalar) kompyuter tarkibiga kiruvchi turli qurilmalar (monitor, klaviatura va boshqalar) ishini boshqaradi.

Kiritish-chiqarish portlari orqali protsessor tashqi qurilmalar bilan ma'lumot almashadi.

Ichki qurilmalar bilan ma'lumot almashuvi uchun maxsus portlar xamda umumiy portlar mavjud.

Umumiy portlarga printer, «sichqoncha» ulanishi mumkin. Umumiy portlar 2 xil bo'ladi: parallel — LPT1—LPT4 deb belgilanadi va ketma-ket — COM1—COM3. Parallel portlar kirish-chiqishni ketma-ket portlarga nisbatan tezroq bajaradi.

Monitorlar. Kompyuter monitori (displey) ekranga matnli va grafik axborotni chiqarishga muljallangan. Monitorlar monoxrom yoki rangli bo'lib, matnli xamda grafik xolatlarda ishlashi mumkin.

Matn xolatida monitor ekрани shartli ravishda aloxida belgi o‘rinlariga (ko‘pincha 80 tabelgili 25 tasatrga) bo‘linadi. Xar bir o‘ringa 256 ta belgidan biri kiritilishi mumkin. Bu belgilar qatoriga katta va kichik lotin alifbosi xarflari, raqamlar, tinish belgilari, psevdografik ramzlar va boshqalar kiradi. Rangli matnlarda xar bir belgi o‘rniga o‘zining va fonning rangi mos kelishi mumkin. Bu esa chiroyli rangli yozuvlarni ekranga chiqarish imkonini beradi.

Grafik xolat ekranga grafiklar, rasmlar va boshqalarni chiqarishga muljallangan. Bu xolatda axborotlarni turli yozuvli matnlar shaklida xam chiqarish mumkin. Yozuvlar ixtiyoriy shrift, o‘lcham, interval va boshqalarga ega bo‘lishi mumkin.

Grafik xolatda ekran yoritilgan va yoritilmagan nuqtalardan iborat bo‘ladi. Xar bir nuqta monoxrom monitorlarda qoraroq yoki yorug‘roq, rangli monitorlarda esa, bir yoki bir necha rangda bo‘lishi mumkin. Ekrandagi nuqtalar soni berilgan xolatdagi monitorning xal etish qobiliyatiga bog‘lik. Shuni ta’kidlash lozimki, xal etish qobiliyati monitor ekranining o‘lchamlariga xam bog‘lik.

IBM rusumidagi kompyuterlarda so‘nggi paytlarda kerakli sifatga ega bo‘lgan tasvirni xosil qilish imkonini beruvchi SVGA va suyuq kristalli (LCD) monitorlari qullanilmoqda.



1.3-rasm. Monitor qurilmasi.

Klaviatura. IBM PC klaviaturasi foydalanuvchi tomonidan ma’lumotlarni va boshqaruv buyruqlaririni kompyuterga kiritishga muljallangan qurilmadir.

Klaviaturaning umumiy ko‘rinishi undagi tugmachalar soni va joylanishiga qarab turli xil kompyuterlarda farq qilishi mumkin, lekin ularning vazifasi o‘zgarmaydi.

Sichqoncha va trekbol. Sichqoncha va trekbol kompyuterga axborotni kiritishning koordinatali qurilmalari xisoblanadi. Ular klaviaturaning o‘rnini to‘laligicha almashtira olmaydi. Bu qurilmalar asosan ikki yoki uchta boshqaruv tugmachasiga ega.

Sichqonchani ulanishining uch usulini ko‘rsatish mumkin. Eng ko‘p tarkalgan usul ketma-ket port orqali ulanishdir. Shinali interfeysli sichqonchalar kamrok tarkalgan. Ularni ulash uchun maxsus interfeys yoki «sichqoncha» porti kerak bo‘ladi. Uchinchi ko‘rinishdagi ulanish PS/2 stilidagi sichqonchalarda amalga oshirilgan. Xozirgi kunda ular portativ kompyuterlarda ishlatilmoqda.

Trekbol — «agdarilgan» sichqonchani eslatuvchi qurilmadir. Trekbolda uning korpusi emas, balki sharcha xarakatga keltiriladi. Bu esa kursorni boshqarish aniqligini sezilarli ravishda oshirishga imkon beradi. Shu bois trekbolga ega bo‘lgan sichqonchalarga qizikish ortib bormokda.

Kompyuterlar asosiy qurilmalardan tashqari bir qator atrof qurilmalariga xam ega. Ularning ba’zilar bilan tanishib chiqamiz.

Printerlar. Printer — ma’lumotlarni qog‘ozga chiqaruvchi qurilma. Barcha printerlar matnli ma’lumotni, ko‘pchiligi esa rasm va grafiklarni xam qog‘ozga chiqaradi. Rangli tasvirlarni chiqaruvchi maxsus printerlar xam bor. Printerlarning quyidagi turlari mavjud: matritsali, purkovchi va lazerli.

Matritsali printerlar yaqin vaqtlargacha keng tarqalgan printerlardan biri edi. Bu printerning yozish kallagida vertikal tartibda ignalar joylashgan. Kallak yozuv satri bo‘ylab xarakatlanadi va ignalar kerakli daqiqada bo‘yalgan lenta orqali qog‘ozga o‘riladi. Natijada qog‘ozda belgi yoki tasvir paydo bo‘ladi. Ignalar soniga qarab bu printerlar bir necha turlarga bo‘linadi: 9 ignali, 24 ignali, 48 ignali.

9 ignali printerda yozuv sifati pastrok. Sifatni oshirish uchun yozishni 2 yoki 4 yurishda bajarish kerak.

24 ignali printer sifatli va tezrok ishlaydi.


48 ignalisi yozuvni juda sifatli chiqaradi.

Matritsali printerlar tezligi bir bet uchun 10 sekunddan 60 sekundgacha.

Purkovchi printerda tasvir qog'ozga maxsus qurilma orqali purkaladigan siyox tomchilaridan yuzaga keladi.

Purkovchi rangli printer sifati lazerli printerga yaqin, narxi arzon va shovqinsiz ishlaydi. Shuning uchun hozirgi kunda ko'pchilik undan foydalanyapti. Tezligi bir bet uchun 15 dan 100 sekundgacha.

Lazerli printerlar matnlarni bosmaxona sifati darajasiga yaqin darajada chop etishni ta'minlaydi. U ishlash nuqtai nazaridan nusxa ko'chiruvchi kseroksga yaqin. Bunda faqat bosuvchi baraban kompyuter buyrug'i yordamida elektrlanadi. Buyuk donachalari zarblanib barabanga yopishadi va tasvir xosil bo'ladi. Tezligi bir bet matn uchun 3 dan 15 sekundgacha. Rasm uchun ko'prok, katta rasmlar uchun 3 minutgacha vaqt talab qiladi. Hozirgi kunda minutiga 15—40 betgacha chop etadigan lazerli printerlar bor.



1.4 - rasm. Printer turlari .

Lazerli kompakt disklar. Lazerli kompakt disklar uchun disk yurituvchi (CD-ROM)ning ish prinsipi egiluvchan disklar uchun disk yurituvchilarning ish prinsipiga o'xshashdir. CD-ROMning yuzasi lazer kallakka nisbatan o'zgarmas chiziqli tezlik bilan xarakatlanadi, burchak tezlik esa kallakning radial joylashishiga qarab o'zgaradi.

Lazer nuri disk yo'lakchasi tomon yo'naladi va Kallak yordamida fokuslanadi. Ximoya qatlamidan o'tgan nur disk yuzasining nurini qaytaruvchi alyumin qatlamiga tushadi. Yo'lakchaning baland qismiga tushgan nur detektorga

qaytadi va nurni sezuvchi diod tomon yo'naltiruvchi prizma orqali o'tadi. Agar nur yo'lakcha chuqurchasiga tushsa, u tarqaladi va tarqalgan nurning juda kam qismi orqaga qaytib, nurni sezuvchi diodgacha yetib keladi. Diodda nurli impulslar elektr impulslariga aylanadi: yorug' nurlanishlar nollarga aylanadi, xira nurlanishlar esa — birga. Shunday qilib, mantiqiy nol sifatida, tekis yuza esa mantiqiy bir sifatida qabul qilinadi.

CD-ROM ning unumdorligi odatda uning biror vaqt davomida ma'lumotlarni uzluksiz o'zlashtirishdagi tezlik xarakteristikalarini va ma'lumotlarga yetishning o'rtacha tezligi bilan aniqlanadi. Ular mos ravishda Kbayt/s va ms birliklarda o'lchanadi.

Disk yurituvchilarning unumdorligini oshirish uchun ularni bufer xotira (KEShxotira) bilan jixozlaydilar. KESH xotiralarning standart xajmlari 64, 128, 256, 512 va 1024 Kbayt.

Disk yurituvchining buferi ma'lumotlarni CD-ROMdan o'qigandan so'ng, kontroller platasi, so'ngra markaziy protsessorga jo'natishgacha bo'lgan vaqt davomida, qisqa muddatga saqlash uchun maxsus xotira xisoblanadi.

Bunday buferlashtirish disk qurilmasiga ma'lumotlarni protsessorga kichik miqdorlarda uzatish imkonini beradi.

Audioadapter. Xar qanday multimediasiy shaxsiy kompyuter tarkibida audioadapter platasi mavjud. Creative Labs firmasi o'zining birinchi audioadapterini Sound Blaster deb atalgani uchun ularni ko'pincha «saundblasterlar» deyishadi. Audioadapter kompyuterga faqat sterefonik ovoznigina emas, balki tashqi qurilmalarga tovush signallarni yozish imkonini xam beradi.

Audioadapter tovush signalida rejasini davriy ravishda aniqlab, uni raqamli kodga aylantirib beruvchi analog-raqamli o'zgartirgichga ega. Mana shu ma'lumot tashqi qurilmaga raqamli signal ko'rinishida yozib qo'yiladi. Ushbu jarayonga teskari jarayonni amalga oshirish uchun raqam-analogli o'zgartirgich qo'llaniladi. U raqamli signallarni analogli signallarga aylantirib beradi. Filtratsiya kilingandan so'ng ularni kuchaytirish va akustik kolonkalarga uzatish mumkin.

Modem va faks-modemlar. Modem-telefon tarmog‘i orqali kompyuter bilan aloqa qilish imkonini beruvchi qurilmadir.

Faks-modem — bu, faksimil xabarlarini kabul qilish va jo‘natish imkonini beruvchi modemdir.

O‘zining tashqi ko‘rinishi va o‘rnatilish joyiga qarab modemlar ichki va tashqi modemlarga bo‘linadi.

Ichki modemlar bevosita sistemali blok ichiga o‘rnatiladigan elektron platadan iborat. Tashqi modemlar — bu kompyuter tashqarisida bo‘lgan va portlardan biriga ulanadigan avtonom elektron qurilmadir.

So‘nggi yillarda modemlar va faks-modemlarga bo‘lgan talab oshib ketdi. Modemlar bir kompyuterdan ikkinchisiga xujjatlar paketini yetarlicha tez o‘tkazish, elektron pochta orqali bog‘lanishga imkon beradi. Shuningdek, xorijiy xamkorlar bilan aloqa qilish uchun global kompyuter tarmog‘i (Internet va boshqalar) ga kirishni ta‘minlaydi.



1.6-rasm. Elektron plata.

Skannerlar. Skaner — kompyuterga matn, rasm, slayd, fotosurat ko‘rinishida ifodalangan tasvirlar va boshqa grafik axborotlarni avtomatik ravishda kiritishga mo‘ljallangan qurilmadir. Skanerning turli modellari mavjud. Eng ko‘p tarkalgani — stol usti, planshetli va rangli skanernardir.



1.7-rasm. Skaner qurilmasi.

Plotterlar — bu, kompyuterdan chikarilayotgan ma'lumotlarni qog'ozda rasm yoki grafik ko'rinishda tasvirlash imkonini beruvchi qurilmadir. Odatda uni grafik yasovchi (grafopostroitel) deb xam atashadi.

Yuqoridagi qurilmalardan tashqari kompyuterga maxalliy tarmoqqa ulanish imkonini beruvchi tarmoq adapteri, didjitayzer, ya'ni electron planshet, djoystik, videoglaz, raqamli fotoapparat va vidiokamera kabi qurilmalar ulanishi mumkin.

1.2.“Media Master Service” firmasining xizmatida o‘ziga xos xususiyatlari

“Media Master Service” firmasining xizmat ko'rsatishda operatsion tizim—bu EHM zaxiralarini boshqarish, amaliy dasturlarni chiqarish va ularning tashqi qurilmalar, boshqa dasturlar bilan o'zaro aloqasini amalga oshirish uchun, shuningdek, foydalanuvchining kompyuter bilan muloqotini ta'minlovchi dasturiy vositalar yig'indisidir.

Operatsion tizim foydalanuvchiga xisoblash tizimi bilan qulay muloqot qilish usuli (interfeys)ni taqdim etadi. Interfeyslar ikkiga bo'linadi, ya'ni dasturiy va foydalaniladigan interfeyslarga bo'linadi.

Dasturiy interfeys – xisoblash tizimi doirasida qurilma va dasturlar o'zaro ta'sirini ta'minlovchi vositalar yig'indisidir.

Foydalaniluvchi interfeys – foydalanuvchining dasturiy yoki EHM bilan o'zaro ta'siridagi dasturiy va apparat vositalaridir.

Ko'pgina operatsion tizimlar xatolarni tuzatish va yangi imkoniyatlarni kiritish yo'nalishida modifikatsiyalashadi va takomillashadi. Vorislikni saqlash maqsadlarida operatsion tizimning yangi modifikatsiyasi qayta nomlanmaydi, balki versiyalar (taxmin) nomini oladi. Operatsion tizim versiyalari odatda 6.00, 2.1., 3, 5, va xokazo ko'rinishida unli kasrni anglatadi. Bunda raqamlarni nuqtagacha oshib borishi operatsion tizimga kiritiladigan jiddiy o'zgarishlarni nuqtadan keyin turuvchi raqamning oshib borishi esa uncha axamiyatsiz o'zgarishlarni aks ettiradi. (masalan xatolarni tug'irlash). Versiyaning tartib nomeri qancha ortik bo'lsa sistema shuncha imkoniyatga ega bo'ladi.

Operatsion tizimning tasniflanishi.

Operatsion tizimlar quyidagi omillar bo'yicha tasniflanadi:

- bir vaqtda ishlaydigan foydalanuvchilar: bir kishi, ko'p kishi (soniga ko'ra);
- tizim boshqaruvi ostida bir vaqtda foydalaniluvchi jarayonlar: bir vazifali, ko'p vazifali (soniga ko'ra);
- qo'llab-qo'vvatlovchi jarayonlar: bir protsessorli, ko'p protsessorli;
- operatsion tizim kodi razryadliligi: 8 razryadli, 16, 32, 64 razryadlilar;
- Interfeys turi: buyruk (matnli) va ob'ektili- yo'naltirilgan (grafik)liligiga ko'ra;
- foydalanuvchining EHM ga kirish turi: paketli qayta ishlash, vaqt bilan bo'linishi, real vaqtga ko'ra;
- Zaxiralardan foydalanish turi: tarmoqli, lokalligiga ko'ra;

Xozirgi paytda operatsion tizimlarning DOS, OS/2, UNIX, WINDOWS oilalari keng tarqalgan.

DOS oilasining birinchi vakili – MS DOS tizimi – 1981 yilda IBM PC kompyuteri paydo bo'lishi munosabati bilan chiqarilgan. DOS oilasining operatsion tizimlari bir vazifali bo'lib quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

- EHM li interfeys foylanuvchi kiritadigan buyruq yordamida amalga oshiriladi;
- tizimni EHM ning boshqa turlariga o'tishini soddalashtiradigan tuzilma mavjudligi;
- operativ (tezkor) xotiraga kirish hajmining uncha katta emasligi (640 Kbayt).

DOS operatsion tizim oilalarining jiddiy kamchiligi SHK va operatsion tizim zaxiralariga beruxsat kirishdan muxofaza vositalarining yo'qligidir. (DOSOT Assembler tilida yozilgan)

OS/2 (Operating System/2) operatsion tizimlari IBM firmasi tomonidan 1987 yilda SHK larning yangi RS/2 yaratilishi munosabati bilan ishlab chiqarildi. OS/2 ikkinchi avlod ko'p vazifali operatsion tizimdir. U bir vaqtda 16 tagacha dasturni bajarishi mumkin. U IBM PS - mos kompyuterlari uchun 32 razryadli grafik ko'p vazifali operatsion tizim sifatida bir necha amaliy dasturlar parallel ishini tashkil etish imkonini berib, bunda bir tizimni ikkinchisidan, operatsion tizimni esa o'zida ishlayotgan dasturlardan muhofaza qilishni ta'minlaydi.

Uning muhim xususiyatlari quyidagilar:

- foydalanuvchining ko'p oynachalik interfeysining borligi;
- qiymatlar bazasi tizimi bilan ishlash uchun dasturli interfeysning borligi;
- lokal xisoblash tarmoklarida ishlash uchun samarali dasturli interfeyslarning borligi;
- OS/2 sig'imi 16 Mbayt gacha bo'lgan tabbiy TX ni va xar bir masalaga 512 Mbayt gacha bo'lgan virtual xotirani qo'llab-qo'vvatlaydi.

Kamchiligi;

-yuqori resurslar sigimi: 80286 va undan yuqori MP, 1,5 Mbayt dan kam bo'lmagan sigimli tezkor xotira, kattik diskda yig'uvchi;
xozirgi vaqtda kelib ishlab chiqilgan dasturli ilovalar hajmining nisbatan katta emasligi.

OS/2 ning bir necha modifikatsiyalari mavjud:

- OS/2 Warp 3.0 – xotiradan foydalanish takomillashgan va grafik interfeysi yaxshilangan;
- OS/2 Warp Connect – tarmoqni qo'llab-qo'vvatlashi yaxshilangan;
- OS/2 WarpServer – serverli operatsion tizim sifatida ishlash uchun mo'ljallangan.

UNIX oilasidagi operatsion tizimlar 32 razryadli ko'p vazifali ko'p kishi foydalanadigan operatsion tizimlardir. UNIX ning kuchli tomoni shundaki bitta tizimning o'zi turli kompyuterlarda – super kompyuterlardan shaxsiy kompyutergacha foydalaniladi. Bu xol tizimni bir mashina arxitekturasidan boshqasiga kam sarf bilan o'tkazish imkonini beradi. UNIX taksimlovchi ma'lumotlar bazasiga kirish, lokal tarmoqlar, olis masofadan aloqa qilish va oddiy modem yordamida global tarmoqlarga chiqish imkonini o'zida birlashtiradi. UNIX da pochta xizmati uning asosiy tarkibiy qismlaridandir. Xozirgi paytda UNIX uchun ko'plab ilovalar mavjud bo'lib, DOS va Windows uchun ommaviy bo'lgan ilovalardan xam unda foydalanilishi mumkin.

UNIX operatsion tizimning faylli tizimi foydalanuvchiga va foydalanuvchilar guruhi darajasida fayllarni beruxsat kirishdan muxofaza etishni ta'minlaydi. Korxonalar tarmoqlari uchun mo'ljallangan UNIX Ware 2.0 - 32 razryadli ko'p kishi foydalanuvchili ko'p vazifali operatsion tizimlar UNIX oilasidagi tarmoqli operatsion tizimlar orasida keng tarqalmoqda.

UNIX operatsion tizimning kamchiligi – katta resurslar sigimi va bu SHK asosidagi ko'p foydalanuvchilar tizimi uchun ko'pincha ortiqcha bo'ladi.

Windows oilasidagi operatsion tizimlar Microsoft firmasi tomonidan tayyorlangan. Ular qulay grafik interfeysni o'zida namoyon etuvchi ko'p vazifali operatsion tizimlardir. Windows 95 operatsion tizim va Windows NT operatsion tizimlar shu oilaning asosiy vakilidir. Windows 95 MSDOS operatsion tizim va Windows 3.x. operatsion qobiqlari negizida ishlab chiqilgan; u qisman 32 razryadli va qisman 16 razryadli operatsion tizimdir.

Windows NT operatsion tizim eng ko'p tarqalgan 32 razryadli tarmoqli operatsion tizimdir. U ikki xil - Windows NT Server va Windows NT

WorkStation modifikatsiyalarida chiqariladi. Windows NT Server birinchi navbatda tarmoq zaxiralarini boshqarishga mo'ljallangan. Tizim samaradorligi zarar yetmagan xolda yuqori safarbarlik va xavsizlikni ta'minlaydi. U axborotning tezkor ishlashini tashkil etish va global tarmoqlar zaxiralarini ko'rib chiqish uchun vositalarni o'zida saqlaydi, istalgan aloqa kanallarida (oddiy telefon liniyalari ham) foydalanish imkoniyatlarini ta'minlaydi. Bir serverga bir vaqtning o'zida 256 tagacha SHK ulanishini qo'llab-quvvatlaydi. Bir necha server esa xammabop tarmoq ximatini tashkil etish uchun foydalanilishi mumkin.

Windows NT WorkStation - Windows NT operatsion tizimning versiyasi bo'lib, lokal kompyuterlar va ishchi stansiyalarda ishlash uchun mo'ljallangan. U juda yaxshi ximoyalangan va ishonchli 32 razryadli operatsion tizimdir. Undagi barcha ilovalar ko'p vazifali rejimida ishlaydi. Ayni paytda unda MS DOS va 16 razryadli Windows dasturining barcha ilovalari ham ishlayvermaydi.

Windows NT WorkStation dan maxfiy ma'lumot yoki dasturni ishonchli muxofaza qilish zaruriyati tug'ilganda shuningdek, katta xajmdagi ma'lumotlar taxlilida yuqori samaradorlik muhim bo'lgan muhandislik, ilmiy, statistik va boshqa ishlarni bajarishda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Operatsion tizimlar rivojlanishining an'analari.

Operatsion tizim rivojlanish soxasida an'analarni aniqlash va uzoq muddatli oldindan ko'rishlarni tuzish murakkab, chunki u kompyuter bozorining tezkor rivojlanuvchi soxasidir. Shu bois faqat mo'ljaldagi an'analari va operatsion tizimlar rivojlanishining extimoldagi yo'nalishini belgilash mumkin:

- birinchi yo'nalish operatsion tizimlarning murakkablashuvi. Zamonaviy operatsion tizimlar, masalan, Windows 95 va OS/2 Warp dasturlarining ulkan turkumlariga aylanmoqda, ular ba'zan diskda dasturdan xam ko'p o'rin egallamoqda;
- ikkinchi yo'nalish ekranda taqdim etilishi usulidan qa'ttiy nazar turli ob'ektlarni kompyuterda monipulyatsiya qilishga imkon beruvchi operatsion tizimlarni yaratishning ob'ektli yo'naltirilgan texnologiyalarini yaratishdir;

- uchinchi yo'nalish shu dalil bilan bog'liqki, operatsion tizimlar va dasturiy ta'minot kompyuterning apparat qismidagi arxitektura qarorlarini doimo aks ettiradi.

Juda tez sur'atlarda rivojlanayotgan internet texnologiyasi operatsion tizimlar rivojlanishi an'analarida vaziyatni keskin o'zgartirmoqda. Operatsion tizim rivojlanishi tendensiyalaridan biri SHK dan to superkompyutergacha bo'lgan hisoblash tizimlarining barcha yo'nalishida ishlashga qodir bo'lgan operatsion tizimni yaratishdir. Misol tariqasida Indy turidagi stolda ishlaydigan tizimlar va Power Challenge va Onix seriyasidagi superkompyuterlarda ishlaydigan UNIX oilasidagi IRIX operatsion tizim ni keltirib o'tish mumkin. Bu operatsion tizim ning muhim imkoniyatlari ko'p jihatdan bugungi kunda zamonaviy 64 razryadli operatsion tizimni belgilab beradi. Uning tezkor xotirasi 16 Gbaytni , virtual xotira foydalanilganda 1 Gbaytni tashkil etish mumkin. Mazkur operatsion tizimga bir katalogda 64 mln. gacha fayl saqlashga imkon beruvchi 9 mln. tagacha T bayt (titobayt) xajmidagi fayllar bilan ishlovchi XFS fayl tizimi ulangan.[14]

1.3.Axborot tizimi asosida “Media Master Service” firmasining xizmat ko'rsatishni takomillashtirish omillari

Axborot tizimi asosida “Media Master Service” firmasining xizmat ko'rsatishda,axborot texnologiyalari bugungi kunda jamiyatning rivojlanishida muhim omil bo'lgan axborot resurslarini harakatga tushirish va samarali ishlatish vazifasini bajaradi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, axborot resurslarini harakatga keltirish, tarqatish va samarali ishlatish boshqa turdagi resurslarni sezilarli iqtisod qilish imkonini beradi: homashyo, energiya, foydali qazilmalar, material va qurilmalar, inson kuchi, ijtimoiy vaqt.

Axborot texnologiyalari oxirgi vaqtlarda inson hayotida muhim ro'lni o'ynayotgan axborot jarayonlarini optimizasiyasi va ko'p hollarda avtomatlashtirish imkonini beradi. Hammaga ma'lumki, taraqqiyot rivojlanishi aholining ishlovchi qismi mehnatining ob'ekti ham, natijasi ham moddiy

mahsulotlar emas, ilm-fandagi yutuqlar bo'lganda kuzatiladi. Hozirgi vaqtda rivojlangan mamlakatlarning band axolisining ko'p qismi axborotni tayyorlash, saqlash, qayta ishlash va jo'natish bilan shug'ullanadi va shu sababdan mos keluvchi usul va texnologiyalarni o'rganib, yangilab turishiga to'g'ri keladi.

Axborot jarayonlari boshqa ishlab chiqarish va ijtimoiy jarayonlarning eng muhim elementlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, ko'p hollarda axborot texnologiyalari mos keluvchi ishlab chiqarish yoki ijtimoiy jarayonlarning tarkibiy komponenti vazifasini bajaradi.

Axborot texnologiyalari bugungi kunda insonlar o'rtasidagi axborotlarni o'zaro almashuvida muhim rol o'ynaydi, undan tashqari ommaviy ma'lumotlarni tayyorlash va uzatish tizimlarida muhim ahamiyatga ega. Bu vositalar bizning madaniyatimiz bilan moslashib ketadi va faqatgina qulayliklar yaratib qolmay, ko'plab ishlab chiqarish, ijtimoiy, globalizasiya natijasida vujudga keluvchi kundalik va jaxon hamjamiyati integrasiyasida, ichki va tashqi iqtisodiy va madaniy aloqalarning kengayishida, axolini ko'chishi va sayyora bo'ylab shu kabi xarakatlarda vujudga keluvchi barcha muammolarni yechimida muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

“Media Master Service” firmasining xizmat ko'rsatishni tashkil qilishda nimalarga e'tibor berish kerakligini ko'rib chiqaylik.

Reklama qilish. “Media Master Service” firmasining xizmat ko'rsatishni reklamalarini chop etuvchi ko'plab taxririyyatlar, kataloglar, web-saytlar mavjud bo'lib, bunday tizimlarda aloxida o'rin tutish qiyin hamda nixoyatda qimmat turadi, shuning uchun avvalombor, sizning taklifingizga qiziqish bildiradigan auditoriyani tanlab olish kerak. Tajriba shuni ko'rsatadiki, reklamani bir necha nashrlarga berishning o'zi yetarli emas, uning uchun kopleks tarzda ish olib borish lozim va asosiy maqsad boshqa auditoriyalarni ham qiziqitira olish lozim.

Doimiy mijozlarni qidirish. “Media Master Service” firmasining ixtiyoriy shug'ullanadigan firmalar uchun eng muhim narsa bu o'zining doimiy mijozlar bazasini tashkil qilib olishlikdir. Buning uchun kamida bir yil ketadi.

Agar birinchi yil “Media Master Service” firmasining xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanadigan firmalar uchun qiyin bo‘lgan bo‘lsa, ikkinchi yilda doimiy mijozlar paydo bo‘la boshlaydi va nixoyat foyda kela boshlaydi. Nixoyat, uchinchi katta burilishga sabab bo‘ladi. U psixologik jixatdan eng qiyin yil bo‘ladi: mijozlar soni keskin o‘sadi, lekin foyda yo‘q, ko‘plab raxbarlar biznesda boshi yo‘q ko‘chaga kirayotganligini xis qiladilar. Shu etapda sayyoxlik firmalarining 40%i o‘z faoliyatini yakunlaydi. Lekin bu etapdan o‘tib olganlar bozorda qat’iy o‘z o‘rinlariga ega bo‘lib olishadi.

O‘z web-saytiga ega bo‘lish. web-saytlar “Media Master Service” firmasi tomonidan qo‘llanib kelinayotgan, muvaffaqiyatning marketingli strategiyasi asosini tashkil qiladi. Hozirgi kunda sayyoxlik firmasining o‘z web-saytiga ega bo‘lishi zaruriyatga aylandi. Albatta, bu uning tashrif qog‘ozi ekanligi uchun emas, balki yaratilgan web saxifa yordamida firma faoliyatini olib borishdagi qo‘shimcha qulayliklar paydo bo‘lishidadir. Quyida mana shulardan ba’zilari keltirilgan.

- firma haqidagi, taklif qilinayotgan firmalar, xizmat va yo‘nalishlar haqidagi to‘liq ma’lumotlarni qiyinchiliksiz olish imkoniyati;
- yangi mijozlar takliflari reklamasi;
- yangi mijozlarni taklif qilish va eskilarini ushlab qolish mumkinligi;
- mijozlarga buyurtmani rasmiylashtirish va bevosita sayoxatning o‘zi xaqidagi eng ko‘p uchraydigan savollariga javob berish;
- paydo bo‘lgan muammolar, ularning yechimlarini izlash uchun sizning raqobatdoshingiz bilan emas, aynan siz bilan bog‘lanishlariga turtki;

Internetdan foydalanish. Xech bir narsa “Media Master Service” firmasi ishini maxsus dasturiy vosita kabi optimal tashkil qila olmaydi – bugungi kunda mijoz va hamkor o‘rtasidagi munosabatlarni tashkil qilish va yuritishda ular eng zo‘r vositaga aylandi, undan tashqari firma faoliyati haqidagi statistik va analitik hisobotlarni chiqarib berish bo‘yicha ham bu dasturlar ajoyib ishlarni qiladi. Zamonaviy dasturiy vosita mijozga taklif qilinayotgan xizmatlar paketi ichidan mosini tanlab olish va hisob-kitob qilishda, kerakli joylarni band qilishda yordam beradi, uning yordami bilan qo‘shimcha xujjatlar tuzilishi va yuritilishi mumkin.

“Media Master Service” firmasining xizmat ko‘rsatishni web saytni yaratish birinchi oyning o‘zidayoq firmaning pul aylanishini 30-50% ga orttirishi mumkin, shu bilan birgalikda telefon operatorlari faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan ushlanib qolishlarni kamaytiradi. Tajribali dasturchi va dizaynerlar komandasi va to‘g‘ri tanlangan strategiya va saytning keyinchalik rivojlanishi, mamnun qiladigan yutuqlarga erishish imkonini beradi, bu bilan buyurtmachi bilan bo‘ladigan munosabatni raqobatbardosh darajaga ko‘taradi.

“Media Master Service” firmasining xizmat ko‘rsatish sayti iste’molchilarga “Media Master Service” firmasining xizmat ko‘rsatishni izchil namoyish qilishda va qo‘shimcha xizmatlarni eng foydali ko‘rinishda namoyish qilish imkoniyatini beradi. Mijozlarning aralashuvi sharofati bilan, ularning web-sayt xaqida nimalarni o‘ylashlari va bundan ham yaxshiroq tarafga o‘zgartirish uchun nimalar taklif qilishlarini bilish mumkin.

Sayingizga tashrif buyuruvchilar sizning mijozlaringizga aylanishi uchun sayingiz faqatgina kerakli ma’lumotlar bilan to‘ldirilib qolmay, balki professional darajada tayyorlangan, ya’ni tashqi ko‘rinish yoqimli, qulay va o‘ta tushunarli bo‘lishi darkor. Zero, bu narsa mijozda sizga nisbatan ishonch, aynan sizga buyurtma berish yoki sizdan xarid qilish tuyg‘usini uyg‘otadi. Bunday yuqorida aytib o‘tilgan talablarga javob beradigan saytlarni faqatgina professionallargina yaratishlari mumkin. Natijada, siz web sayt yaratilishi va yuritilishiga sizning foydangizdan ko‘proq sarflashingiz mumkin. Zero, sizning sayingiz kamtar, boshqa internet maxsulotlar ichida mashxur bo‘lishi, shu bilan birga sizning faoliyatingizda asosiy ofisga ham aylanishi mumkin.

Saytning foydasi nimalarga bog‘liq? Agar ikkita bir xil assortimentli to‘g‘ri qilingan saytni oladigan bo‘lsak, ulardan qaysi birida tashrif buyuruvchilar ko‘p bo‘lsa, o‘sha saytning foydasi ko‘proq bo‘ladi.

Saytga tashrif buyuruvchilar soni nimalarga bog‘liq? Saytning tashrif buyuruvchilari soni saytni sifatli va muvaffaqiyatli amalga oshirishga sarflangan pul miqdoriga bog‘liq. Zero bugun sifatli va muvaffaqiyatli amalga oshirishsiz tovar va xizmatlar qidiruvi natijasi ro‘yxatida birinchi emas, hattoki ikkinchi yoki

uchinchi bo'lish ham tushdek ko'rinadi. Saytni sifatli va muvaffaqiyatli amalga oshirish qolgan reklama vositalarini hammasini birga olgandan ko'ra, ko'proq foyda keltirishi mumkin.

Saytni sifatli va muvaffaqiyatli amalga oshirish nimani beradi? Saytni sifatli va muvaffaqiyatli amalga oshirish sizning takliflaringiz bilan qiziqqan tashrif buyuruvchilar umumiy sonini keskin ko'taradi, natijada kompaniyaning foydasi ortadi.

Bugungi kunda "Media Master Service" firmasining xizmat ko'rsatish, mijozlarga maksimal darjada ma'lumot berib, ularni qaror qabul qilishlariga yordam beruvchi portallarni aytadigan bo'lsak, fikrimiz to'g'ri ekanligiga amin bo'lamiz. Keyinchalik mijozlarga ta'sir qilish usullari anchagina xiylakor bo'lib ketmoqda. Hozirgi vaqtning o'zida ma'lum doiraga tegishli bo'lgan foydalanuvchilarning qiziqishlarini, odatlarini, sevimli saytlarini o'rganib taxlil qilish usullari mavjud. Marketologlarga faqatgina mijozlarga kerakli ma'lumotni kerakli vaqtda tashab qo'yish kerak bo'ladi xolos.[2]

2. “MEDIA MASTER SERVICE” FIRMASINING XIZMAT KO‘RSATISH WEB SAYTINI YARATISH

2.1. “Media Master Service” firmasining xizmat ko‘rsatish tashkil etish tamoyillari

Iqtisodiyotni globalashtirish sharoitida informatsion madad istagan darajadagi tashkiliy xo‘jalik faoliyatining unumli rivojlanishiga, aholining axborotlashtirilganligi va farovonligini o‘rishiga va odamlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar yaxshilanishiga ko‘maklashuvchi muhim elementlardan biriga aylanib bormoqda. Bunday yutuqlar keng ko‘lamli WWW tarmog‘i va unga joylashgan Web–saytlarning doimo ishlab turishi evaziga erishiladi. Shuning uchun hozirgi vaqtda har bir tashkilot yoki har bir shaxs, qaerda ishlashidan qat’iy nazar, internetda o‘z joyini yaratish zarurligini tushunmoqda. Chunki bu usul natijasida butun dunyoga o‘zi to‘g‘risida, o‘zining ish faoliyati to‘g‘risida gapirish va internetning bepoyon resurslaridan o‘z maqsadi yo‘lida foydalanish imkoniyatlari paydo bo‘ladi. Axborotni Internetda joylash uchun, yuqorida aytilganidek, uni ekranda aks ettirish uchun qulay bo‘lgan ko‘rinishda, ya’ni Web–sahifa ko‘rinishida taqdim etish zarur, chunki bu sahifada joylashtirishni xohlagan foydalanuvchi axboroti har tomonlama bo‘lishi va u ko‘p hollarda Web–saytda joylashishi mumkin.

Aql bilan yaratilgan sayt, qoida bo‘yicha, informatsion yagona bus-butun hisoblanadi va joylashgach axborot mohiyatiga qarab alohida kriteriya va standartlarga ega bo‘ladi, va ko‘plab tashkilot va muassasalar, xususi foydalanuvchilar uchun o‘zlarining tashkilot va shaxsiy ish faoliyatlarida Web – texnologiyani va uning elementlarini tadbiq etish bo‘yicha ko‘plab har xil muammolarga duch kelinadi. Bu Web–saytlar internet serverlarida joylashguncha va nashr qilinguncha Web–texnologiya va dizayn asoslaridan yuqori va chuqur bilim talab qiluvchi, ko‘p qirrali va professional–intellektual ishdir. Bu muammolar zamonaviy Web–texnologiyalar bo‘yicha mutaxassislar yetarlicha bo‘lgandagina yechiladi. Shuning uchun Web–sahifa yaratish va uni o‘rganish

jarayoni, shu berilgan yo‘nalish bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlash hozirgi kun uchun juda muhim va faol hisoblanadi. Bu mutaxassislik kuchli va kelajagi porloq professiya, u hozir ham, kelajakda ham hamisha, o‘z o‘rniga ega bo‘ladi.

Boshqa tomondan Web–saytlarni yaratish va o‘rganish muammosining faolligi va muhimligini quyidagi sabablar bilan asoslash mumkin:

- taqdim qilinayotgan internet servis xizmatlari muhitini ko‘p miqdorda kengayishi va ulardan foydalanishning osonligi bilan;
- tarmoq Web–texnologiya, ularning resurslari va imkoniyatlarini hamma joyda tarqatish bilan;
- istagan darajali axborotlarga bo‘layotgan talablarning o‘sib borishi bilan;
- tashkilot va xususiy shaxslarning o‘zlari va o‘z ish faoliyatlari to‘g‘risidagi axborotlarni internetda joylash uchun intilishlarning o‘sishi bilan;
- tarmoq ma’lumotlar bazasidagi global masshtabdagi har xil maqsaddagi axborotlarga e’tibor qaratish bilan;
- har mamlakat, millat va fan odamlarining o‘zaro muloqot va tushunishlarga bo‘lgan intilishi bilan;
- Web–texnologiyaning barcha yo‘nalishlari bo‘yicha mutaxassislarning yetishmasligi bilan.

Shunday qilib, internet xizmatlaridan ikkita xizmat spektriga alohida e’tibor berish kerak, ya’ni tarmoq abonentlar aro axborot almashuvi va axborot qidirish va tarmoq berilganlar bazasidan foydalanish. “Media Master Service” firmasining xizmat taraqqiyotining samarasi to‘g‘risida gap ketganda barchamiz har xil Internet xizmatlaridan potensial foydalanuvchiga aylanib qolishimizni ta’kidlash zarur.

Internetda axborotlarni ifodalash taqdim qilinadigan axborot xiliga bog‘liq bo‘ladi, ya’ni shaxsiy yoki unga katta bo‘lmagan firma va tashkilotlar; davlat tasarrufidagi Web –saytlar; ta’lim va moliya strukturalari; ilmiy markaz va kutubxonalar; xayr–exson uyushmalari; biznes uyushma saytlari; kontent–saytlar axborotlarini taqdim etish. Ayniqsa, saytning birinchi sahifa jihoziga alohida e’tibor qaratish kerak.

Web–saytni yaratish va uni o‘rganish muammolarining ko‘plab sabablariga quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: internet xizmatining kengligi; xizmatdan foydalanishning oddiyligi; Web–texnologiyalarni tarqatishdagi qulaylik; real vaqt masshtabida axborotlarga bo‘lgan talablar; tashkilot va xususiy shaxslarning o‘zlari to‘g‘risidagi axborotlarni internetga joylashtirishga intilishi; tarmoq ma’lumotlar bazasida global mashstabdagi ixtiyoriy ma’lumotlarni to‘plash; Web–texnologiya bo‘yicha mutaxassislarning yetishmasligi.[3]

2.2. “Media Master Service” firmasining xizmat ko‘rsatish web saytni yaratish algoritmi

“Media Master Service” firmasining xizmat ko‘rsatish arxitekturasini yaratishda ham ko‘pchilik foydalanadigan tizim mijoz - server arxitekturasining qurilishi bu fikrning rivojlanishiga asos bo‘ldi. "Mijoz-server" tizimining klassik tuzilmasi o‘zida ikki komponentni mujassamlashtiradi: ma’lumotlar bazasi serveri va mijozlar qo‘shimchasi. Bu ikki darajali mijoz server arxitekturasini deyiladi. Bu yerda mijoz qo‘shimchasi faqat ma’lumotlar bazasidagi axborotni o‘zgartirishga, qidiruvga bo‘lgan talabni shakllantiradi, server qismi esa axborot (ma’lumot)ni to‘laligicha saqlangan holda o‘zgartirish yoki qidiruviga javob beradi. Biroq amaliy faoliyat masalasi ma’lumotlar bazasi bilan ishlashda to‘g‘ri kelmaydi. Bazada saqlanayotgan ma’lumotlar ustidan ma’lum operatsiyalar bajarilishi kerak. Ikki darajali arxitektura qo‘shimcha masalalar kompyuter - mijoz vositasi bilan hal qilinadi. Uning rivojlanishiga uch darajali arxitektura xizmat qiladi: ma’lumotlar bazasi serveri qo‘shimchalar serveri mijozlar qo‘shimchalari. Bu yerda mijoz qo‘shimchalari funksiyalarining sezilarli qismi maxsus ajratilgan server qo‘shimchalariga qo‘yiladi. Uch darajali arxitektura mijozlar qo‘shimchalarining asosiy masalasi foydalanuvchining interfeysini qo‘llab-quvvatlash va ma’lumotlarni qayta ishlash. Shuning uchun mijoz - server arxitekturasini afzalliklarida biri mijozlar kompyuterlari tavsiflariga bo‘lgan solishtiruvchi talabdir.

Yuqorida aytilganlardan hulosa qilib shuni aytish mumkinki, Elektron biznes tizimlarining texnologik asoslarini mijoz server arxitekturasini realizatsiyasi bilan lokal va global kompyuter tarmoqlarining birlashmasi tashkil qiladi.

Internetdan foydalanish elektron biznes yuritishda samaraliroq metodlar, modellar va vositalarni tanlashda quyidagi savollarga javob izlash lozim:

Demak, “Media Master Service” firmasining elektron biznes faoliyatini Internetda tashkil etish maqsadida Web-sayt quyidagi tarkibiy arxitektura tuzilmalari asosida loyixalandi.

- asosiy mijozlar qanday insonlar bo‘ladi, ularning faoliyati va geografik joylashuvi qayer;
- mijozlarning kompyuter bilan taminlanganlik darajasi qanday, ularning yangi axborot texnologiyalarga munosabatlari qanday;
- tashkilotlar mahsuloti va xizmatlarini matn va rangli grafika bilan tasvirlash mumkin;
- qay darajada tashkilot internetda elektron biznes yuritish uchun barcha sharoitlar bilan taminlanganmi? va boshqalar;
- tajribalar shuni ko‘rsatadiki elektron biznes yuritishda muvaffaqiyatning asosiy kriteriyalarga quyidagilarni kiritish mumkin;
- orginallik – bozorning aloxida segmentida sezilarli o‘rin tutmoqda;
- elektron sohasida siyosat yuritishda ketma-ket boshqaruv;
- maqsadga yo‘naltirilganlik – maqsadli internet –auditoriyasini aniqlashtirish va ularni qiziqishlari barcha guruhlariga ajratish;
- qatilylik – elektron biznesni boshqarishda qatilyatlilik.

Demak, internetda elektron biznes yuritish tizimini tashkil qilishni nimadan boshlash kerak? Bu jarayon etaplari bilan tanishib chiqamiz. Birinchi etapda, odatda tashkilot Web-sayti, strukturasi va tarkibi yaratiladi. Boshqa serverlarga reklama berish orqali Web-saytiga mijozlar jalb qilinadi. Bu etapda mijozlar uchun teskari aloqa elementlari ham tashkil qilinadi.

“Media Master Service” firmasining Web-saytini ishlab chiqishda ko‘pincha muhim va murakkab muammolardan biri bu uning tarkibini aniqlash masalasidir.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki hozirda tashkilotlarning rivojlangan saytlarida quyidagicha bo'limlar mavjud:

- Firma yoki korxona haqida malumotlar (tarixi alosiy yutuqlari elektron biznesni yuritish maqsadi, mijozlar va hamkorlar fikri)
- Firma yoki korxonalar mahsulot yoki xizmatlarni taklif qilish (narxi va texnik tavsifi, kataloglar yetkazib berish va xizmat ko'rsatish sharti, avzalliklari)
- Texnik qo'llab-quvvatlash bo'limi (maslaxat, tavsiyalar va qo'llash xususiyatlari)
- Milliy iqtisodiyotning u yoki bu soxasiga tashkilotning oldingi barcha qancha malumotlar (tushunchalar, taxminiy lavxalar, statistik malumotlar va boshqalar)
- Mahsulot yoki xizmatga buyurtma formasi.
- Tashrif buyuruvchilar xisoblagichlari.
- Joriy davr yangiliklari.
- Potensial mijozlar uchun qayd qilinish formasi.


Web-sayt tuzilmasi bir qancha aloxida yaratilgan va har biri ma'lum funksional vazifani bajaruvchi saxifalar to'plamidan iboratdir. Har bir saxifa muayyan bir saxifalar bilan o'zaro aloqada bo'lishi mumkin.

Zamon talablariga mos Web-sayt yaratish uchun ushbu loyixani amalga oshirishda klient-server arxitekturasiga asoslaniladi. Bundan tashqari web-saxifaning dinamikligini taminlash uchun malumotlar bazasi bilan ishlash imkoniyati tashkil etildi. Saytdagi har bir gipermatn malum saxifaga murojat qilarkan u malumotlar bazasining mos jadvaliga murojaat qiladi.[4]

2.3. “Media Master Service” firmasining xizmat ko‘rsatish web saytini yaratishning dasturiy ta‘minoti

PHPning sintaksisi C va Perl ga o‘xshaydi. Dastur tuzish bilan tanish bo‘lganlar PHP dastur tilini tez o‘rgana oladilar. Bu tilda ma‘lumotlar, o‘zgaruvchilar turlanishi qiyinchiligi yo‘q va xotiradan joy bo‘shatish, egallash jarayoning kerakgi yo‘q. PHP tilida yozilgan dastur oson o‘qiladi Perl dasturidan farqli PHP dasturini oson o‘qish va tushinish mumkin. [9]

Web tarkibining tuzilishi strukturasida ko‘rsatilganidek, har bir foydalanuvchi so‘rovi web serverga borib tushadi, web serverdan server dasturi orqali ma‘lumotlar bazasi yoki fayllarga murojaat qiladi undan olingan javoblar server dasturi orqali web serverga va undan yana foydalanuvchiga uzatiladi.




2.1-rasm. Web-saytning ishlash strukturasini

PHP ishlagishi uchun Apache HTTP Web serveri bo'lishi kerak.

Bu Web server:

- o'zida oxirgi protokollarni jamlagan shu jumladan HTTP/1.1(RFC2616);
- oson quriladi va dasturchilar tomonidan qilinadigan modullardan foydalanib kengaytirish mumkin;
- boshlang'ich kodlar bilan ta'minlangan va litsenziyasi bepul;
- Windows NT/9X Netware3.x Os/2 Unixning ko'p versiyalari uchun versiyalariga ega;
- taniqli ma'lumotlar bazasining ko'p turlari bilan bog'lana oladi;
- texnik apparat bilan ta'minlanishida ham muhim xususiyatlarga ega masalan P 166 va 16 MB OZU larda ham ishlay oladi.[15]

PHP tili MBBT MySQL bilan yaxshi ishlay oladi.



2.2-rasm. Dasturiy taminot sxemasi

O'zining afzalliklari bilan PHP,MySQLga bog'lanishi umumiy ishlatilishi ta'minlaydi. Biz Windows da ham, UNIXda ham dasturlarni tuzish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Apache yoki IIS server bilan bog'lanib, tashqi CGI jarayoni bo'lib yoki oddiy skript interpretator bo'lib yoki modul bo'lib ham ishlaydi.Bu dasturni ishlatishda umumiy harakat qilish mumkin.[5]

MySQL – kichik, kompakt ko'p oqimli ma'lumotlar ombori serveri. MySQL yuqori tezlik, o'zgarmasligi va ishlatishda qulayligi bilan xarakterlanadi. MySQL TcX kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan, u juda katta ma'lumotlar omborini tez qayta ishlash ehtiyojidan kelib chiqib yaratilgan. Kompaniyaning ta'kidlashicha, 1996 yildan beri serverda MySQL dan 40 dan ortiq MO lar foydalanadi, ularda 10000 jadvallar bo'lib, ularning 500 dan ortig'i 7 milliondan ko'p satrga ega.

MySQL kichik va o'rta ilovalar uchun ideal yechim bo'lib hisoblanadi. Serverning yakuniy matnlari ko'pgina platformalarda kompilirlanadi. Server imkoniyatlari Unix-serverlarida yanada to'laroq namoyon bo'ladi, chunki bu yerda ko'p oqimlilik qo'llaniladi, bu esa samaradorlikni oshishiga olib keladi. Windows uchun ishlab chiqilgan variantda MySQL Windows NT servisi sifatida yoki Windows 95/98 dagi oddiy jarayon kabi ishga tushishi mumkin. Joriy vaqtda MySQL, 3.22 versiyalari butunlay ishga yaroqli bo'lsada, hali ham yaratilish bosqichida turibdi.

MySQL-server notijorat foydalanish uchun bepul hisoblanadi. Aks holda qiymati 190 EUR bo'lgan lisenziyani olish zarur.

MySQL imkoniyatlari

MySQL ANSI 92 standartida SQL so'rovlar tilini qo'llaydi, bundan tashqari ushbu standartda, boshqa birorta MOBT da mavjud bo'lmagan ko'plab imkoniyatlar mavjud. MySQL imkoniyatlarning qisqa ro'yxati.

1. Ma'lumotlar ombori bilan bir vaqtda cheklanmagan sonli foydalanuvchilar ishlashi mumkin.
2. Jadvallardagi satrlar soni 50 mln. ga yetishi mumkin.

3. Buyruqlarning tez bajarilishi. MySQL mavjud serverlar ichida eng tezkori bo'lishi mumkin.

4. Oddiy va samarali xavfsizlik tizimi.

MySQL haqiqatdan ham juda tezkor server, ammo bunga erishish uchun yaratuvchilar relyatsion MOBT lariga qo'yiladigan bir necha talablardan voz kechishlariga to'g'ri keldi.

MySQL da quyidagilar mavjud emas:

1. `SELECT * FROM table1 WHERE id IN (SELECT id FROM table2)` kabi kiritilgan so'rovlar qo'llanishi. 3.23 versiyada bunday imkoniyat yaratilishi ko'zda tutilmoqda.

2. Tranzaksiyalar yordami realizatsiya qilinmagan. Uning o'rniga `LOCK/UNLOCK TABLE` dan foydalanish taklif qilinadi.

3. Tashqi (foreign) kalitlar yordami mavjud emas.

4. Triggerlar va saqlanadigan protseduralar yordami mavjud emas.

5. Namoyishlar (VIEW) yordami yo'q. 3.23 versiyada namoyishlar yaratish imkoniyati rejalashtirilmoqda.[12]

Dastur yaratuvchilari fikriga ko'ra, aynan 2-4 punktlar tez harakat qilish imkonini berdi. Ularning ishi server tezligini sezilarli pasaytiradi. Ularning bo'lishi Web-ilovalar yaratishda kritik hisoblanmaydi, shuning uchun yuqori tezlik va kichik yo'qotish evaziga server katta shuhratga erishdi.

Dinamik Web-saytni yaratish uchun birinchi bo'lib bizga Web-server kerak, masalan Apache. Web-server ko'p soxalarda ishlatilishi mumkin, masalan elektron magazinga, axborot serveriga, qidiruv sistemasiga, masofadan o'qitish tizimiga xizmat ko'rsatishi mumkin. Serverni tanlash internetda nima bilan shug'ullanmoqchi ekanligimizdan kelib chiqadi.

Ushbu "Media Master Service" firmasining saytni yaratishda PHP algoritmik tildan foydalanilgan. PHP dasturlash tili tanlanganligiga sabab, bu dasturlash tili dasturlovchi uchun juda qulay hamda bu til aynan Internet uchun yaratilgan. PHP ning asosiy raqiblari – Perl , ASP , ColdFusion va Java.

PHP va Java. Umuman aytganda, Java va Java texnologiyasi bir-biridan farq qiladi. Java tili C tilining to'liqroq shakli, qaysi "kengaytirilgan C++" kabi ishlangan. Java texnologiyasi o'ziga klient va server qismlarini biriktiradi, va yana ma'lumotlar bazasi bilan bog'lanish imkonini beradi, shuning uchun Java texnologiyasini Apache/PHP/MySQL bog'lanmasiga tenglashtiriladi. Java texnologiyasi platformalararo texnologiya ko'rinishida ishlab chiqilgan, foydalanuvchilar korporativ masshtabdagi Web saytlarni yaratishi mumkin. Bu texnologiyaning asosiy ustunligi platformalararo ko'chishi va ob'ektga mo'ljallangan dasturlash tili, qaysiki qiyin va katta ilovalarni yaratish uchun. Kamchiliklari sekin bajarilishi va xotirani katta talab qilishi va Web ilovalarni ishlab chiqarish qiyinchiligi PHP ga tenglashtiriladi. PHP moslashuvchanlik va masshtablanish bo'yicha deyarli Java dan qolishmaydi. Bir qancha oddiy ilovalarda o'zini yetarli oqlagan lekin jiddiy ilovalarda chetlab o'tadi. [10]

RNR va ASP.NET ni yana bir masala ustida solishtirsak, agar katta korporatsiya ko'pgina serverlar va klient mashinalar tomonidan INTRANET tashkil qilingan bo'lsa va bu tizim Windows da boshqarilsa ASP.NET yana bir bor o'z ustunligini namoyon qiladi.


RNR ni yana bir ustunligi boshlovchilar uchun qulay va Internetga joylashtirish oson kechadi. Shuning uchun hozirgi kunda RNR keng qo'llanilmoqda.

RNR va ColdFusion. ColdFusion paketi Allaire firmasi tomonidan tuzilgan. Interaktiv va dinamik web saxifalarni tayyorlash uchun, web hujjatlarni qayta ishlash va ma'lumotlar bazasidan ma'lumot olish uchun yaxshi. Minus tomonlari ColdFusion tashib yurish qiyinchiligi RNR ni olsak deyarli barcha platformada ishlay oladi. ColdFusion esa faqat 4 ta: Win32, Solaris, HP/UX va Linux. ColdFusion juda kam tarqalgan va RNR ga nisbatan katta resers talab qiladi. Ushbu keltirilgan muloxazalardan kelib chiqib bitiruv malakaviy ishi sayti PHP da qilindi.[6]

3. “MEDIA MASTER SERVICE” FIRMASINING XIZMAT KO‘RSATISH WEB SAYTINI AMALIY TADBIQI


3.1. “Media Master Service” firmasining xizmatini tashkili tuzilishi

“Media Master Service” firmasining xizmat ko‘rsatish web-sayti yaratishda PHP texnologiyasidan foydalaniladi. PHP tilining bir qancha ob‘ektlari mavjud bo‘lib, ulardan ayrimlarini web-saytni mukammal qilib yaratishda foydalaniladi. Quyida ularning tavsifi va “Media Master Service” firmasining xizmat ko‘rsatish web-sayti dasturiy ta’minotida qanday uslubda qo‘llanilishi keltiriladi. 3.1-rasmda “Media Master Service” firmasining xizmat ko‘rsatish web-saytining bosh saxifasi keltirilgan.




3.1-rasm. web-saytning bosh saxifasi


Web-sayt yangiliklari bilan tanishish. Administratorga murojaat, bunda mijozlar birorta xizmatlar bo'yicha murojaatlarini qoldirishlari mumkin. Kengi 3.2-rasmda web-saytining "Media Master Service" firmasining foto galeriyasi joylashgan.



3.2-rasm. Web-saytning foto galeriyasi



3.3-rasm. Web-saytning musiqiy to'plami keltirilgan




3.4- rasm. “Media Master Service” firmasining manzili

Administrator interfeysining ko‘rinishi quydagi 3.4-rasmda keltirilgan: Bu panelga kirish faqat administrator login va paroli orqali amalga oshiriladi. Ushbu sahifada bir qancha o‘zgartirish ishlarini olib borish mumkin:

1. Sayt yangiliklarini o‘zgartirish. Bu yerda administrator sayt yangiligini o‘chirishni yani yangilik matnini kiritish mumkin. Yangilik kiritilgan sana avtomatik aniqlanadi va malumotlar omboriga yoziladi.

2. Web-saytning kontakt ma'lumotlarni yoki zaruriy ma'lumotlarni o'zgartiriladi.
3. Murojaatlar bilan tanishish sayt administratoriga birorta qiziqish yoki fikr bo'yicha murojaatlar bilan tanishish.
4. "Media Master Service" firmasining xizmat ko'rsatishlar faqat adminstratori tomonidan ma'lumotlarini kiritish, o'zgartirish,o'chirishi mumkin.
5. Web-saytning yangi xizmatlarni qo'shishni ham keltirib o'tamiz



3.5- rasm. Ro'yhatdan o'tish bo'limi

Har qanday foydalanuvch ro'yhatdan o'tishi lozim. Ro'yhatdan o'tish tartibi foydalanuvchining ismi familyasi sharifi,login,E-mail,parol yozilgandan so'ng tasdiqlash belgisi bosiladi.

3.2. “Media Master Service” firmasining web saytini internet qidiruv tizimlarida ro‘yxatdan o‘tkazish

“Media Master Service” firmasining web saytini internet qidiruv tizimlar alohida o‘rinni egallaydilar. Qidiruv tizimlari saytni mashxurligini oshirishga ham yordam beradilar, agar to‘g‘ri kalit so‘zlar va qidiruv tizimi tanlangan bo‘lsa. Qidiruv tizimlarda saytingizni registratsiya qilish juda katta foyda beradi. Shuning uchun bu vositadan to‘g‘ri va samarali foydalanish zarur.

“Media Master Service” firmasining web saytini internet qidiruv tizimlarida ro‘yxatdan o‘tkazishdan oldin qidiruv tizimlarining ishlash tamoyilini bilash zarur.

Ma’lumotlarni izlash va strukturalash mexanizmlari qidiruv tizimlari deyiladi. Bu tizimlar foydalanuvchiga kerakli ma’lumotlarni topib berish uchun qo‘llaniladi. Internet tarmog‘ida mavjud dokumentlar haqida ma’lumot to‘plash uchun mahsus crawler, agent, spider, robot nomli programmalar ishlatiladi. Bu mahsus programmalar internet tarmog‘ida mavjud saxifalarni izlab ulardagi barcha berilgan so‘zlarni borligini aniqlab hujjatlardan talab etiladigan ma’lumotlarni olib saxifani indekslashtiradilar va shu tariqa to‘plangan barcha ma’lumotlar orqali internetda keadilar.

Foydalanuvchilarga qachonki biror ma’lumot kerak bo‘lsa, ular qidiruv tizimi saytiga kirib, maxsus formani izlanayotgan mavzuga doir kalit so‘zlar bilan to‘ldirib, uni serverga yuboradilar. Kiritilayotgan so‘zlar va ularga qo‘yiladigan talablar agent dokumentni indekslashtirish jarayonida ularga qo‘yiladigan talablarga javob berishi kerak.

Ma’lumotlar bazasi foydalanuvchi yuborgan so‘rov asosida dokumentlarni izlab, ularni brauzerda akslantiradi. Qaysi dokument yuqorida chiqishini esa ma’lumotlar bazasi ranglashtirish algoritmini qo‘llagan holda aniqlaydi. Ideal holatda foydalanuvchi kiritgan so‘zlarga relevantligi yuqori bo‘lgan dokumentlar ro‘yxatda yuqori o‘rinda turadilar. Turli qidiruv tizimlari turli ranglashtirish algoritmlarini qo‘llashi mumkin. Lekin relevantlikni aniqlashda dokumentga nisbatan qo‘llaniladigan asosiy talablar quyidagilardan iborat:

1. Dokument matnida foydalanuvchi kiritgan so'zlarning soni.

2. Shu so'zlar joylashgan teglar.

3. Izlanayotgan so'zlarning dokumentda joylashishi.

4. Qidiruvi amalga oshirilayotgan so'zlarning dokumentdagi og'irligi.

Yuqorida sanab o'tilgan prinsiplar barcha qidiruv tizimlarida qo'llaniladi. Quyida keltirilganlar esa ayrim mashhur qidiruv tizimlari tomonidan amalga oshiriladi (HotBot, AltaVista kabilar).

5. Saxifa qidiruv tizimi ma'lumotlar bazasida qancha vaqtdan beri mavjudligi. Ko'pchilik bu prinsipni ma'noga ega emas deb o'ylashlari mumkin. Lekin o'ylab qarasangiz internetda qanchadan-qancha web-saxifalar bir oy yashaydi. Agarda sayt bir necha yildan beri ish faoliyatini amalga oshirib kelayotgan bo'lsa, albattakim bu sayt foydalanuvchiga ikki haftadan beri ish faoliyatini amalga oshirib kelayotgan saytdan ko'ra ko'proq foyda keltirishi mumkin.

6. Ma'lumotlar bazasida mavjud saxifalarning qanchasidan quyidagi saxifaga qancha xavola yo'nalgan.

7. Qidiruv tizimida qo'llanilgan texnologiya ranglashtirish yo'li bilan aniqlangan HTML dokumentlarni foydalanuvchiga faqat havolaning o'zini, ayrimlari esa xavolani va bu HTML dokumentning qisqacha tarkibini keltirish bilan birga surovni amalga oshirish uchun ketgan vaqtni ham keltirishi mumkin.

8. Qachonki siz natijada mavjud dokumentlarning xavolasidan birini bossangiz, dokument joylashgan serverdan shu dokument suraladi.

Barcha hujjatlar yig'indisini shunday tashkillashtirish kerakki, ularda kerakli ma'lumotlarni topish oson bo'lsin. Ma'lumotlar bazasi foydalanuvchi so'rovi bilan birgalikda ishlashi kerak. So'rovlar bir biri bilan mantiqiy operatorlar bilan bog'langan bir nechta so'zlardan iborat murakkab shaklda bo'lishi mumkin. Sodda so'rovda hammasi oson kechadi, foydalanuvchi bir so'z kiritadi, mashina matndagi shu so'zlar bilan bog'liq havolalarni chiqaradi. Murakkab so'rovlar ustida ishlash esa bir qancha qiyinroq bo'lgan mehnatni talab qiladi.

Qidiruv tizimlarda registratsiyadan o'tish turlicha amalga oshiriladi, o'z texnik ta'minoti va ishlatadigan programmasiga ko'ra registratsiya vaqtida turlicha

so'rovlar qo'yiladi va ma'lumotlar so'raladi. Qidiruv tizimlarda qayd qildirish bepul va pulli bo'lishi mumkin. Ko'p hollarda ma'lum bir boshlang'ich davr pulsiz bo'lib, so'ng pulli bo'lishi mumkin. Masalan birinchi 1 yoki 2 oy pulsiz bo'lishi mumkin, keyingi oylarda esa ma'lum xarajatni talab etishi mumkin. Qidiruv tizimlarda registratsiya vaqtida saytingiz kalit so'zlari so'raladi. Saytingiz qidiruv tizimida optimal ishlashi uchun kalit so'zlarni aniq va yaxshi tanlash zarur.

Statistika bo'yicha 90% tarmoq foydalanuvchilari internetdan ma'lumot topishda qidiruv tizimlaridan foydalanadi. Shuning uchun ham qidiruv tizimlari eng ko'p tashrifga ega internet resursi hisoblanadi: 47% tarmoq foydalanuvchilari har oy mashho'r Yahoo katalogidan foydalanadi, 20% Alta Vista qidiruv tizimidan foydalanadilar. Shunday qilib qidiruv tizimlari reklama beruvchilarga maksimal keng qamrovli reklama kompaniyasini olib borishga imkon beradi. Shuningek ular maqsadli auditoriyaga yo'naltirilgan ta'sirini ko'rsatishga juda qulay. [11]

"Media Master Service"firmasining web-saytini axborot qidiruv tizimlarida qayd qildirish orqali biz uning tarmoqdagi mashho'rligini oshiramiz. Ya'ni tarmoq foydalanuvchilari qidiruv tizimlarida birorta kalit so'z yoki jummalarni yozib qidiruvga beradi. Qidiruv tizimi esa kalit so'zlarni taxlil qilib, ma'lumotlar bazasidan yoki internetdagi mavjud serverlardan izlab, topilgan xujjatlarni indekslashtiradi va havolalar ro'yxatida chiqaradi. Shu ro'yxatda bizning ham veb-saytimiz chiqishini ta'minlash uchun iloji boricha ko'proq axborot qidiruv tizimlarida saytni qayd qildirishimiz zarur. Buning uchun har bir qidiruv tizimida alohida yoki maxsus saytlarda ro'yxatdan o'tish kerak. Ya'ni shunday maxsus saytlar borki, ular foydalanuvchilarga bir vaqtning o'zida ko'plab qidiruv tizimlarida qayd qilinishni ta'minlaydi va bu xizmati uchun hech qanday mablag' talab qilmaydi. Bunday saytlarga www.registratura.ru saytni misol qilib keltirish mumkin. Unda qayd qilinish formasini 1 marta to'ldirib, bir vaqtda 14 ta yirik portallarda qayd qilinish mumkin.

Ushbu saytlarga murojaat qilib "Registratsiya" tugmasini bosangiz, qayd qilinishi kerak bo'lgan sayt haqida ayrim ma'lumotlar so'raladi, ya'ni saytning URL adresi, muallifi, muallif elektron pochta adresi, saytning sahifalariga oid kalit

soʻzlar va jumlarlar va hokazo. Kiritiladigan kalit soʻz va jumlarlarga katta ahamiyat berish kerak. Chunki ular qidiruv natijasida nechanchi boʻlib turishini belgilaydi.

Birinchi usul reklama beruvchidan hech qanday toʻlovlarni talab qilmaydi. Bu degani reklama beruvchi kompaniya maxsus qidiruv tizimlarida bepul roʻyxatdan oʻtkazishi mumkin. Bu quyidagini anglatadi:

1. Barcha saxifalar indekslashtirilgan boʻlishi kerak.

2. Qidiruv tizimlari ishlash jarayonida 100 lab soʻrovga toʻgʻri keladigan saxifalarni topadi, ammo ekranda 10 – 20 talabni koʻrsatadi. Masala shundan iboratki, biz saxifaga qidiruv natijasining yuqori qatorlarida koʻrsatilishiga erishishimiz kerak. Agarda bizning saxifamiz misol uchun 398 qatorda koʻrsatilgan boʻlsa, u xolda bu saxifaga biror bir kishini yetib borish extimoli juda kam.

3. Har bir foydalanuvchi saxifani qidarishda har xil kalit soʻzlaridan va iboralardan foydalana oladi. Iloji boricha soʻrov shaklidan qattiy nazar sizni saxifangiz qidiruv natijasining yuqori qatorlariga tushishi kerak. Soʻz va soʻz birikmalari sipektirlari etarlicha boʻlishi kerak.

4. Foydalanuvchilarga natijalarni taqdim etishda sistema sizning saxifangizni qisqacha mazmunini va nomini maʼlum koʻrinishda chiqaradi. Oʻsha maʼlumotlar samarali koʻrinishida boʻlishida, sizning saxifangizda aniq tasavvur bera olishi va foydalanuvchi diqqatini torta olishi kerak.

Ikkinchi usul esa reklama beruvchidan maʼlum bir harajatlarni talab qiladi, serverdan reklama sotib olish mumkin boʻladi. Qidiruv tizimlari agarda reklama beruvchilarga reklama joylashtirish boʻyicha quyidagi imkoniyatlarini taqdim etadi

Shuni eʼtiborga olish kerakki, hozirgi kunda Google qidiruv tizimi saytdagi kirish va chiqish havolalar sonini eʼtiborga oladi. Undan tashqari bu havolalar mavqeini aniqlaydi. Shuningdek, sayt biron bir veb resursiham jamiyatiga kirishligi yoki kirishmasligini tekshiradi. Albatta, havolalarni baxolash algoritmiyagona kriteriyaemas. Google bundan tashqari internet resurslarini baxolashda boshqa kriteriyalardan ham foydalanadi.

Yandex. Saytlarni xavolalar mavqeyiga nisbatan saytlarni ranglashda o'lgangan qaytarilish indeksini aniqlash uslubini qo'llaydi. Saytning qaytarilish indeksi – bu web saytiga havolalarga ega bo'lgan saytlar sonidir. Havolalar strategiyasiga asoslangan holda qidiruv mashinalarda yaxshi natijalarga erishish uchun quyidagi savollarga javob berishi kerak.

Siz xavolalar bilan almashayotgan sayt tematikasi sizning proyktangiz tematikasiga to'g'ri keladimi yoki yo'qmi. Buning uchun o'z saytingizni, tematikangizni analiz qilish va xuddi shunday analizni sheriklar saytlari ustida ham amalgam oshirish lozim. Bu sherik saytlardan qaysi biri sizning tematikangizga to'g'ri kelishiyoki to'g'ri kelmasligini aniqlashga yordam beradi.

Sizning resursingizga shu soxaning mavqeyisi yoki mutaxassisi hisoblangan saytlar savollarga ega yoki yo'qligi. Bu erda qiziq bir effekt yuzaga keladi: sizning do'stlaringiz qanchalik taniqli bo'lsa siz ham shunchalik taniqli bo'lasiz. Va nixoyat sizning saxifalaringiz qidiruv tizimlari uchun qanchalik optimallashtirilgan. Qanaqa kalit so'zlar yoki iboralarni qo'llayotganingiz, ular saxifaning qaerda joylashuvi, ularning jipslashganligi va hokazolar. Bu yondashuv nafaqat qidiruv serverlariga sizning proektingiz tematikasini aniqlab beradi, balki, agar sizning sheriklaringiz o'z saytlarini havolalar orqali optimallashtiradigan bo'lsa, qidiruv mashinasiga sizlarni bir xamjamiyat deb xisoblashga asos bo'ladi.

3.3. “Media Master Service” firmasining xizmatini samaradorligini aniqlash

“Media Master Service” firmasining xizmatini samaradorligini aniqlash, yuqorida aytib o'tilgan qonunlar aloqa va axborotlashtirish sohasida axborot xavfsizligini ta'minlashning huquqiy asoslarining asosiy yo'nalishlarini o'z ichiga oladi.

Bizning “Media Master Service” firmasining xizmatini iqtisodiy samarasi, yaratilgan web saytning o'z mijozalariga ega bo'lishi. Chunki mijoz o'ziga kerakli malumotlarni ixtiyoriy joyda turib to'liq ma'lumot olishlari mumkin. Agar

korxona Web—sayti milliy bozorga mo'ljallangan bo'lsa, u holda uni biron—bir milliy provayderlarning serveriga joylashtirish lozim. Agarda korxona mahsuloti yoki xizmatlari xalqaro bozorga mo'ljallangan bo'lsa, unda Web—saytni chet el, shu qatorda Shimoliy Amerika kompaniyalari serveriga joylashtirmoq kerak, zero bunda axborotni olish tezligi va u bilan ishlash samaradorligi yuqori bo'ladi. Agar korxonaga milliy va xalqaro bozor bir xilda zarur bo'lsa, u holda ona tilidagi va ingliz tilidagi versiyalar ishlab chiqilmog'i va yuqori keltirilgan muqobilli joylarda yoki bir Web—saytda birlashtirmoq kerak.

Web-saytlarni internet tarmog'iga joylashtirishda xosting tushunchasi ishlatiladi.

Xosting – bu internet tarmog'ida doimo mavjud bo'lish uchun serverda ma'lumotlarni fizik joylashtirishda disk soxasining ajratilishi va taqdim etilishi xizmatidir.

Xosting xizmatida pochta korrespondensiyasi, ma'lumotlar bazasi, DNS, fayl va bular uchun joy ajratib berilmoqda. Shuningdek, bu servislarning faoliyati va funksiyalari ham qo'llab quvvatlanadi.

Xosting xizmati odatda tekin va pullik shakllarga ega. Tekin xosting xizmatini taklif qiluvchi kompaniyalar ularga berilgan saytlarda o'z reklamarini joylashtirish orqali foyda ko'radilar. Bunday xostinglar odatda pullik xostinglarga nisbatan tezligi va ishonchliligi past hisoblanadi. Fizik shaxslar ko'pincha shunday xostinglardan foydalanadilar. Biznes tashkilotlari esa har doim pullik xosting xizmatlaridan foydalanadilar.

Xosting xizmatlari resurslar taqdim etishga qarab quyidagilarga ham ajratiladi:

- virtual xosting – ko'p sonli foydalanuvchilar uchun umumiy bitta web-servis xizmati muhiti, diskda joy ajratiladi;
- virtual ajratilgan server - diskda joy ajratiladi, foydalanuvchi uchun ajratilgan serverday tuyuladi, lekin aslida bitta real serverda bir qancha virtual serverlar joylashtiriladi. Bu xizmat turi o'rtacha og'irlikdagi va yengil proektlar uchun mo'ljallangan;

- ajratilgan server – ma'lum xotira, protsessor va disk soxasi bilan butun bir server taqdim etiladi. Katta web proektlar uchun mo'ljallangan;

Xosting tanlashdagi muhim kriteriya bu ishlatiladigan operatsion tizimdir, chunki u yoki bu funksional vazifalarni qo'llab-quvvatlash unga bog'liq. Xostingning muhim aspekti u yoki bu xizmat va imkoniyatlar mavjudligidir:

- CGI ni qo'llab- quvvatlash;
- Perl, PHP, ASP ni qo'llab- quvvatlash;
- htaccess (Apache uchun) ni qo'llab- quvvatlash;
- ma'lumotlar bazasini qo'llab- quvvatlash;

Yuridik nuqtai nazardan O'zbekistonda xosting xizmati telematik aloqa xizmatiga kirmaydi. Qachonki aloqa operatori foydalanuvchi qurilmasini o'zida joylashtirsa va uni internetga ulashni ta'minlasa – u holda aloqa tarmog'iga murojaatni ta'minlash xizmatini ko'rsatishi uchun operator litsenziya olishi kerak.

Internetda elektron biznesni olib borayotgan korxona boshqaruvchisi o'zining jismoniy Web - serverini tashkil qilish va qo'llab - quvvatlash bo'yicha qaror qabul qilish mumkin. Ushbu muqobil yuqoridagilardan qator farqlarga ega. Avvalo Web - server yaratishga yetadigan xarajatlar yig'indisi ko'proq narxi esa sezilarli darajada katta, ya'ni ishlarning xajmi va murakkabligiga qarab to'la qonli server tashkil qilishga 10 ming dollardan ortiq pul ketishi mumkin. Korxona serverini joylashtirish alohida kuchli kompyuter va o'tkazuvchanlik qobiliyati 64 Kb.s dan kam bo'lmagan aloqa kanalini talab etadi (aks holda serverga kiruvchilarda grafika bilan ishlashda, shuningdek server yuklanishi korxona ichki tarmog'idan Internetga chiqishda qiyinchiliklar tug'diradi). Web - server tashkil etuvchilari bir necha Web - sayt va serverlarni ishlab chiqishda (dizayn va mumkin bo'lgan to'lov interaktiv elementlar) tajribaga ega bo'lgan firmalar, shuningdek faqat shunda ixtisoslashgan va katta tajribaga ega bo'lgan kompaniyalar chiqishlari mumkin.[13]

Umuman olganda shuni aytish mumkinki, katta bo'lmagan korxonalarda shaxsiy Web - serverni ishlatish fatqatgina elektron biznes tizimining ishlatish yuqori darajada bo'lgandagina o'zini oqlaydi. Masalan, shaxsiy server elektron

biznes tizimini korxonaning moliyaviy xo'jalik faoliyati bilan integratsiyalashuvida kerak. Shaxsiy serverni ishlatish axborotni, himoya qilish darajasini oshirishi va shu kabilar nuqtai nazaridan maqsadga muvofiq. Biroq bu holda shaxsiy serverni sotib olish uchun ketadigan umumiy xarajatlarni hisobga olish lozim.

Birinchi hamda ikkinchi muqobillar server joylashtiriluvda axborotni himoya qilish savollari alohida e'tibor talab etadi.

Web - saytni internetga joylashtirishning bir qancha usullari mavjud, masalan tekin va pullik joylashtirish. Har ikkalasida ham avvalo, veb-sayt uchun domen nom olinadi.

Bu jarayon bilan tanishishdan oldin ayrim tushunchalarni ta'riflab o'tsak. Domen - Internet tarmog'ining ierarxik nomlarining joylashgan sohasi bo'lib, noyob domen nomi bilan belgilanadi va unga domen nomlari serverlar yig'indisi (Domain Name System – DNS) tomonidan xizmat ko'rsatiladi hamda uni domen ma'muriy boshqaruvchisi markazlashgan holda boshqaradi. Har bir qayd etilgan domen nomi uchun yagona ma'muriy boshqaruvchi belgilangan. Domen nomi veb-sayt identifikatori bo'lib, u lotin alifbosi xarflaridan va raqamlardan hamda oraliq simvollaridan tashkil topadi. Masalan: www.uzinfocom.uz yoki www.cctld.uz.

Internetda adreslar va domen nomlarni tayinlash bo'yicha xalqaro tashkilot ICANN (Internet Corporation for Assigned Names and Numbers) kelishuviga binoan, 2003 yil 27 martdan buyon UZINFOCOM markazi O'zbekiston xududidagi domen administratori – ccTLDUZ xisoblanadi. (<http://www.cctld.uz/>) Ushbu markaz domen nomlarni qo'llab-quvvatlash va qayd qilish bo'yicha xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilashning chora-tadbirlari bilan shug'ullanadi. Bu markaz, shuningdek, internet tarmog'ida milliy axborot resurslarini yaratish va rivojlantirishni bo'yicha keng ko'lamda ishlar olib boradi.

Domen nomini qayd qildirish uchun birorta provayderga murojat qilib, maxsus forma to'ldiriladi va shartnoma tuziladi. Ixtiyoriy provayder yuqorida aytilgan markazga murojaat qilib, tanlangan domenning mavjud yoki mavjud emasligini tekshiradi. Agar domen bo'sh bo'lsa, bu domen nomi sizning veb-

saytingiz uchun band qilinadi. Aks xolda boshqa nom tanlashga to'g'ri keladi. Belgilangan mablag' to'langach, kamida 1 yilga web-saytni internet tarmog'iga joylashtiriladi. Murojat qilgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxs tomonidan berilgan talabnomaga ko'ra Domen nomi ro'yxatga olinadi.

4.HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI

4.1.Vibratsiya(titrash) ishlab chiqarishdagi zararli omil sifatida

Ishlab chiqarish korxonalarda mexanizmlarning harakati natijasida har xil titrashlar vujudga keladi. Titrash ish unimdorligini kamaytiribgina qolmasdan, balki uning sog'ligiga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin bu ta'sirini oldi olinmasa, xavfli titrash kasalligiga olib keladi..Shuning uchun xam titrashga karshi kurash muhim ahamiyatga ega.

Titrash umumiy va qisman bo'lishi mumkin. Umumiy titrashda inson organizmining butunlay titrash ta'sirida buladi, kismanda esa inson organizmining ba'zi bir kismilarigina titrash ta'sirga tushadi.Transport vositalarini boshkaruvchilar yuk kutraish kranlarini boshkaruvchilar shtamp bosuvchilar umumiy titrash ta'sirida buladilar.. Kisman tatrash ta'sirida bulish kulda ishlatiladigan elektrov a pnevmatik qurilmalar bilan ishlovchilar tushadi.

